

O'ZBEKISTON BADIYIY AKADEMIYASI
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA
DIZAYN INSTITUTI

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Dizayn fakulteti dekani
R.Norchaev
«B» 2017 yil

5150900-Dizayn ta'lim yo'nalishi: Libos dizayni va gazlamalarning badiiy
yechimi bo'limining talabasi

Zokirova Iroda Furqat qizining

“Pret-a-porter yo'nalishidagi libos modellari kolleksiyasining
dizayn-loyahasini ishlab chiqish” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Libos dizayni

kafedra o'qituvchisi
Z.M.Saidova

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Libos dizayni kafedrasini mudiri
A.Z.Rashidov
«B» 2017 yil

Mazkur bitiruv malakaviy ishi "Libos dizayn" kafedrasida bajarilgan. "Libos dizayn" kafedrasida

2017 yil 30 iyun dagi № 11 - sonli majlisda hamda "Dizayn" fakultetining

« » 201 yildagi № - sonli fakultet Kengashida muhokama etilgan va himoyaga tavsiya etilgan.

Битирув маълумий ишига
ТОҶИҚ

Иштирокчилар:	Заминрабо Усмова
Ўқитувчи:	Рўзиом Раҳимов
Ўқитувчи:	Ҳасанов Камолiddин, Абдураҳимов Ҳасанов Раҳимов, Раҳимов
Ўқитувчи:	"Дизайн-ва-кафедра" битирув ишига 2017 йили 30 июн кунинда битирув ишига қатнашган
Ўқитувчи:	М. Камолiddин, 2017 йил 2016 йил
Ўқитувчи:	2017 йил, 2016 йил
Ўқитувчи:	2017 йил, 2016 йил
Ўқитувчи:	2017 йил, 2016 йил
Ўқитувчи:	2017 йил, 2016 йил
Ўқитувчи:	2017 йил, 2016 йил
Ўқитувчи:	2017 йил, 2016 йил


Bitiruv malakaviy ishi himoyasi 2017 yil «8» iyun soat 10³⁰ da Kamoliddin Behzod nomli Milliy rassomlik va dizayn institutida o'tkaziladi.

Manzil: Mirzo Ulug'bek tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 35-uy.



“Тасдиқлайман”
К.Бехзод номидаги МРДИ
“Либос дизайни” кафедраси
муdiri Ф.З. Атаханова
«14»-октябр 2016 й.

Битирув малакавий ишига
ТОПШИРИҚ

4- курс талабасига берилган (талабанинг Ф.И.Ш.)	Зокирова Алрода Фурват кизи.
Ихтисослик	515900 - Дизайн „Либос дизайни“ таълим маълумотининг бадиий қисми
БМИ мавзуси	„Трет - а - портер“ айналовидан либос моделлари коллекциясининг дизайн-лойиҳасини шундай қилиш.
Топшириқ берилган сана:	14 - октябрь 2016 - йил
БМИ бўлимларини бажариш муддатлари:	
Бадиий қисм:	
Методика қисми:	
Дастлабки химоя санаси:	
БМИ химояси санаси:	
БМИ бажарувчиси:	
БМИ раҳбари:	Саидова Зиёда Мирвоҳидовна. 

MUNDARIJA

Kirish	2.
1. Zamonaviy moda yo'nalishi.....	5.
2. Kolleksiya yaratish uchun ijodiy manba tanlash va uni asoslash...	9.
3. Taklif etilayotgan modellarning vazifasini asoslash.....	14.
4. Badiiy qism.....	18.
4.1. Rangli eskizlar....	19.
4.2. Texnik eskizlar.....	24.
4.3. Modellarning tashqi ko'rinishi tasnifi.....	31.
4.4. Konfeksion xaritalar.....	35.
5. Modellarning hajmiy-fazoviy shaklini hosil qilish va texnologik ishlov berishni asoslash.....	40.
Xulosa	
Adabiyotlar ro'yxati	
Hovalar	59.

Kirish

Prezidentimiz Islom Abduganievich Karimov tashabbuslari bilan barcha tarmoqlarning muvozanatli rivojlantirilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan ichki va tashqi bozorlardan xaridorgir import o'rnini bosishga hamda eksport mahsulotlar hajmining muntazam oshishiga xizmat qilmoqda.[2]

Shu o'rinda yurtboshimizning "San'at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo'l topish haqida so'z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agarki har qaysi ijodkor o'z asarlarida ana shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, ma'daniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib o'zining ijtimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi", degan bitiklarini eslash o'rinlidir.[1]

Biz ijodkor yoshlar uchun yurtimizda ajratilayotgan keng imkoniyatlar, qolaversa, san'at sevar xalqimiz uchun badiiy ko'rgazmalarning ko'plab va keng ko'lamdagi namoyish etilishi bizni yanada ko'proq ijod qilishga, o'z iste'dodimizni namoish etishga undaydi. Biz yoshlar mana shu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishimiz, mustaqillik yillarida olayotgan ta'lim, bilim va ko'nikmalarimizga suyangan holda Vatan ravnaqi, istiqboli, barcha sohadagi rivojlanishga o'z erishayotgan yutuqlarimiz bilan hissa qo'shishimiz shart va zarurdir.

So'ngi yillarda mamlakatimiz ham iqtisodiy, ham siyosiy jarayonlarning yuksalib borishi va yanada sayqal toppishi bilan aholi turmush tarzi yanada yaxshilandi va jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'ldi. Libos dizayni sohasining rivojlanib borayotganiga alohida urg'u bersak, bu tarmoq sezilarli tarzda

rivojlanib bormoqda. 2015 yil noyabr oyida bo'lib o'tgan yoshlar festivali yuqorida ketirilgan gaplarning yana bir tasdiqi, bunday festivallarda iqtidorli yoshlar o'z ijod namunalari bilan qatnashishi mumkin. Toshkentda har yil muntazam ravishda libos dizayni sohasiga oid turli namoyishlar, ko'rgazmalar o'tkaziladi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar bu sohaga ajratilayotgan katta e'tibor sabablidir.

2016 yilning may oyida "Uzeksposentr"da xalqaro o'rtaosiyo ixtisoslashtirilgan "Textile Expo Uzbekistan 2016" ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Xalqaro O'rtaosiyo ixtisoslashtirilgan "Textile Expo Uzbekistan" ko'rgazmasi Evropa va SNG davlatlari I.T.E. Exhibitions & Conferences kompaniyalari uyishtirgan, shuningdek MODA UK, Bubble London ixtisoslashtirilgan ko'rgazmalari, Sibir moda xaftaligiga o'hshash ixtisoslashtirilgan tekstil va moda ko'rgazmalari qatoriga kiradi. Bu ko'rgazma bir necha yildan buyon muntazam ravishda bo'lib o'tadi, ekspertlarning fikricha "Textile Expo Uzbekistan" ko'rgazmasi butun dunyo mutaxassiskari - sotuvchi va xaridorning uchrashish joyi hisoblanadi.

Aholining sifatli mahsulotga bo'lgan talabi ham ortib bormoqda, hukumatimiz oldida aholini o'zimizda o'ziga xos dizayn ko'rinishda ishlab chiqariladigan tayyor sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash masalasi ko'ndalang turibdi. Bu esa libos dizayni sohasining rivojlanishi, mahsulot sifatining ortishi va buning ish berishini talab etadi. Mahsulot sifati orqali davlatning iqtisodiy salohiyatiga baho berish mumkin. Modaning jadal suratda rivojlanishi yaratilayotgan mahsulotlarning unga mos kelishini talab etadi. O'zbek yoshlari dunyoda jadallik bilan ravnaq topayotgan moda va dizayn sohalarida ham hech kimdan kam emasliklarini ko'rsatishi lozim.

Mavzuning dolzarbligi: Dizayn XX asrda insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan keng voqe'likka aylandi. U san'atning ko'pgina turlariga – arxitektordan tortib, to madaniy – maishiy buyumlariga kirib bordi va inson yashash tarzining rivojlanishida tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrga kelib esa bu jarayon yanada kuchaydi.

Biz kundalik hayotimizda turli uslubdagi va ko'inishdagi kiyimlarni xarid qilamiz, ammo har doim ham bir xil uslubda kiyinishdan, bir xillikdan zerikamiz, omma orasidan o'zgacha uslub, ko'inish bilan ham ajralib turgimiz keladi. Mana shu masalalarni yechish maqsadida pret-a-porter yo'nalishidagi kundalik liboslarni o'rganib, ushbu yo'nalishda zamonaviy moda yo'nalishini o'rgangan holda yangi liboslar to'plamini loyihalashga qaror qilindi. Bunday kiyimlar o'rtahol aholi uchun mo'ljallanib, "ot kutiyur" kiyimlardan anchagina arzon turadi. Pret-a-porte kolleksiyalari mavsumiy haute couture kolleksiyalari g'oyalarini o'zida aks ettiradi. Pret-a-porte liboslari ham go'zal ham nisbatan arzonroq bo'lganligi sababli ularning xaridori ko'p va moda doim o'zgarishda bo'lganligi, hamda yangilik kiritish zarurligi sababli bu yo'nalishga murojaat etildi.

Yetakchi korxonalarining oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri bu arzon va sifatli va har tomonlama qulay mahsulot ishlab chiqarishdir. O'zbekistonda xalqni sifatli, turli assortimentdagi mavsumbop bichimli, estetik ko'inishi jihatidan aholi talablariga mos keladigan kiyimlar bilan ta'minlash, jahon bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan sifatli mahsulot ishlab chiqarish oldimizga qo'ygan muhim vazifadir.

Bitiruv malakaviy ishi ob'yekti: pret-a-porter yo'nalishidagi libos modellari kolleksiyasi.

Bitiruv malakaviy ishi vazifasi: pret-a-porter yo'nalishidagi libos modellari kolleksiyasining dizayn-loyihagini ishlab chiqish.

1. Zamonaviy moda yo'nalishi.

Moda - bu taqlid va yangilik. Moda turmushning tashqi ko'rinishida, asosan kiyimda namoyon bo'ladigan biror didning muayyan ijtimoiy muhitda ozroq vaqt hukmron bo'lib turishidir.

Yangi libos modellarini loyihalashtirayotganda libosning nafaqat qulayligi, balki uning o'zgacha uslub yoki turli did sohiblari, moda shinavandalari uchun o'z individualliklarini saqlab qolishi va shu kabi vazifalarni bajaruvchi xususiyatlarga, ranglar uyg'unligi va modabopligiga e'tibor qaratish kerak. Ayollar gardrobini asosan kundalik liboslar tashkil etadi. Chiroyli va to'g'ri tanlangan kundalik libos ayol kishining maftunkor, go'zal va zamonaviy ko'rinishiga sabab bo'ladi. Mana shuning uchun ham dizaynerlar yildan-yilga kundalik libos dizayniga katta ahamiyat qaratishmoqda.

Urfdagi liboslarni turli uslublarda ko'rishimiz mumkin. 2017 yil modasida liboslarga bo'lgan talab bu – yuqori jozibadorlik. Fashion–industriyada ayollar liboslarining asosan nozik xarakteri yuqori baholanmoqda, bu esa barcha turdagi ko'ylaklarni nafislashtiradi.[26]

Laura Biagiottining 2016 yil bahorgi-kuzgi kolleksiyasida sokin ranglardan tashkil topgan va yorqin urg'ular bilan boyitilgan "pret-a-porte" yo'nalishidagi liboslarini ko'rishimiz mumkin. Qaymoqrang qizil bilan juda yaxshi uyg'unlik kashf etgan. Kolleksiya kontrast bezaklar, kashta, nozik gulli printlar ishtirok etgan. Liboslar silueti erkin, kontrast rangdagi krujevolar tunika va sarafanlarga ozroq qat'ilik baxsh etgan. Kolleksiya modellari juda nozik uyg'unlikda yaratilgan, krujevolar ko'p uchraydi, yupqa materiallar va ko'pqavatlilik mahorat bilan qo'llanilgan.[23]

Bu mavsumda Blumarine brendining yangi kolleksiyasi alohida noziklik kasb etdi, shuningdek, juda zamonaviy chiqdi. Kolleksiya urfga mos barcha elementlarni ko'rish mumkin. Yupqa, nozik matolardan tayyorlangan ko'ylaklar, gulli printli yoki applikatsiyali bluza va yubkalar – brendning alohida jihati, hamda so'ngi moda yo'nalishiga juda ham mos. Yupqa yo'l-yo'l matolar

uygʻunligi va keng bichimdagi koʻylaklar bezatilgan applikatsiyalar noanʻanaviy koʻrinish kasb etgan. Yupqa koʻylak va yubkalarning ustidan kiydirilgan kontrast uygʻunlikdagi qoʻpolroq koʻrinishdagi kurtka va jaketlar kolleksiyaga originallik bagʻishlagan. Kolleksiyada oq va qaymoqrangdan tashqari boshqa och ranglar ham oʻz oʻrnini topgan: havorang, terrakota, pushti, ammo, shuning bilan bir qatorda kolleksiyada qora rang ham koʻp ishtirok etgan.[31]

Max Mara brendining 2016 yil bahorgi-kuzgi pret-a-porte kolleksiyasini koʻzdan kechiradigan boʻlsak, shimli kostyumlarning bosimligi seziladi. Shimlar asosan keng va toʻgʻri bichimga ega, bel chizigʻi balandroq joylashib, uzunligi toʻpiqqcha davom etgan. Shimlar va ust kiyimlarda bezak sifatida yirik oʻlchamdagi tillarang tugmalar ishtirok etgan. Kolleksiyada juda qiziqarli printlar oʻz oʻrnini egallagan. Liboslar ranggi klassik uslubga xos va toza ranglardan tashkil topgan. Kolleksiyaning kompozitsion markazi, yaʼni yangiligi bu – uzun yengli sviterlar, asosan yoʻl-yoʻl turdagi liboslarda uzun yenglar qiziqarliroq koʻringan.[31]

Marni brendining pret-a-porte yoʻnalishidagi 2016 yilgi kolleksiyasi brendning oʻz uslubiga xos yaratildi. Kolleksiyadagi liboslarning ranglari koʻk, yashil, qizil, qora va oqlardan iborat. Bu ranglarning barchasi bir libosning oʻzida qatnashib, supermatistlar kartinasi imitatsiyasi effektini bergan. Shuningdek kolleksiyada yirik va yorqin printlar ham qatnashgan. Kiyimlarning bichimini kuzatadigan boʻlsak, juda murakkab, koʻpqavatlilik, asimmetriya ham mavjud. Charm, atlas, shoyi materiallarining ishtiroki – kolleksiyaning asosiy jihati. Har doimgidek obraz qiziqarli taqinchoqlar va aksessuarlar bilan boyitilgan.[23]

Mashhur moda uyi - Christian Diorning bahorgi-kuzgi 2016 yil pret-a-porte kolleksiyasi oq batistdan shortilar, top, koʻylak va yubkalardan tashkil topgan. Nozik buyumlarni yirik toʻqilgan sviter va jiddiy siluetli jaketlar bilan uygʻunlashtirish kolleksiyaga oʻzgacha originallik bagʻishlagan. Kolleksiyaning asosiy oʻziga xosligini koʻrsatib turgan buyum bu – shortilar, uni kichik koʻylaklar va tunikalar bilan kiyish mumkin. Kolleksiyaning nozik ranglar

uygʻunligi tashkil etgan, shu qatorda qora rang ham kyyeng oʻz oʻrnini egallagan.[24]

Ayol obrazi 2017 yil garderoibning asosiy buyumlaridan yigʻiladi, bu kolleksiyalarda bir-biriga toʻgʻri kelmaydigan shakl, proporsiya, oʻlcham, material va ranglar uygʻunligini keltirib chiqarishi mumkin. Tabiiy va sunʻiy materiallarning uygʻunligi oʻziga alohida eʻtibor toradi.

Sarafanlar trapetsiya shaklida boʻlishi va turli rangdagi oborkalar bilan bezatilishi kutilmoqda. Yubkalar turli uzunlikda boʻlishi mumkin, katta choʻntakli yoki koʻpqavatli yubkalar urfga kiradi. Bunday choʻntaklar sarafan va koʻylaklarda ham qoʻllanilishi mumkin: ikki yonida, yenggida, etagida va koʻkrak qismlarida. Tik yoqani ham barcha turdagi liboslarda qoʻllash mumkin. Jiletarning uzunligi maksimal darajada boʻlib, ular turli rang va matolardan bajarilishi mumkin.

Koʻylaklar silueti yopishgan boʻlib, ranglari turli xil: yorqin va bosiq ranglar bir qatorda modabop. Bluzalar yupqa matolardan tikilib uzun yubkalar bilan yaxshi uygʻunlik kasb etadi.[27]

Podiumdagi ranglar boyligi quyidagi ranglar uygʻunligi ustunligini aniqlab beradi, birinchi oʻrinda bu xaki, sabzirang va havorang. Xaki birnecha mavsum urfdan qolmay kelmoqda, bu mavsum xakini qimmatbaho atlas va shifon matolarida uchratishimiz mumkin. Mato fakturasiga armiya uniformasi elementlarini qoʻshib, ayollar libosiga yana ham jozibadorlik va originallik baxsh etishimiz mumkin.[25]

2017 yil urfdagi shimlar juda maftunkorligi bilan ajraladi, uning qomatni chizib turishi va qulayligi kutilmoqda, shuningdek, minimalizm hukm surayotganligiga qaramasdan, shimlar printli, yoki turli bezaklarga ega boʻlishi mumkin, yaʻni, kashta yoki yarimqimmatbaho toshlar bilan bezatilgan boʻlishi ham mumkin.[27]

Klassik bichimdagi shimlarning bel chizigʻi tepada joylashib, retro uslubini eslatuvchi boʻksadan kengaygan usul qoʻllanilib bosiq ranglarda

bajariladi. Shimning bel chizig'i faqat tepa joylashib, keng manjet va kamarlar bilan yoki qator tugmalar bilan bezatilishi mumkin.[28]

Palitra. Liboslarning ranglariga keladigan bo'lsak, butunboshli institutlar kelajakda urfga kiradigan ranglarni aniqlash uchun millionlab tadqiqotlar olib boradilar. Shuning uchun liboslar to'plamlarini yaratishda o'zimizga yoqqan va yarashgan rangdagi matolardan foydalanish noto'g'ridir. Bu mavsumda, ya'ni 2016–2017 yilda urfdagi ranglar: oq, qaymoqrang, qizil, binafsha va uning monoxromligi, yashil, moviy rang, tillarang va h.k.. Eng muhim rang bu – kulrang bo'lishi kutilmoqda. Aynan urfdagi ranglar mavsum obrazini aniq ko'rsatib beradi. Bu ranglar eng muhim o'rinni egallab, siluet va shaklga ham o'z hukmini o'tkazmoqda.[25]

2017 yil qizil, ko'k va oq ranglarning uyg'unligi mashhurlik cho'qqisini egallaydi. Oq va qora ranglar uyg'unligi ham doimgidek urfda. Aynan mana shu ranglarning uyg'unligi ushbu bitiruv malakaviy ishida loyihalashtirilayotgan to'plamdagi liboslarda qo'llanildi.

Poyafzallar. Urfga ko'ra zamonaviy poyafzallar noodatiy va jozibali ko'rinishga ega. Yarimqimmatbaho toshlar, biser, krujevo bilan bezatilgan poyafzallar ayni muddaodir. Bunday bezatilgan poyafzallarni har qanday kiyimlar bilan ham hech ikkilanmay uyg'unlashtirishimiz mumkin. Rangiga keladigan bo'lsak, qizil, qora va tillaranglar mos keladi. Keng poshnali, platformali, shuningdek, ingichka poshnali va vetnamka-sandal urfda.[30]

Aksessuarlar. Agar libosda yorqinlik yetarli darajada bo'lmasa, bu muammoni aksessuarlar yordamida hal etishimiz mumkin. Obrazni bilakuzuk, zirak va munchoqlardan tashqari sumka ham to'ldirishi mumkin. Bu mavsum sumkalari o'zining originalligi va qulayligi bilan ajralib turmoqda. Noan'anaviy geometriyaga ega sumkalar, turli ko'rinishdagi yelkaga osadigan klatchlar, klassik, retro uslublariga xos, shuningdek, charm, popuk va printlar bilan bezatilgan sumkalar eng zamonaviy hisoblanadi.[30]

2. Kolleksiya yaratish uchun ijodiy manba tanlash va uni asoslash.

Kolleksiyaning yaratishida unga obrazli ma'no berish muhim, bu borada esa uning estetik xususiyatiga alohida e'tibor berish kerak. Ya'ni, bizning vazifamiz nafaqat badiiy obraz yaratish, balki kompozitsiya qonunlariga rioya etgan ravishda libosni loyihalash. Har qanday holatda ham kostyum odam bilan birgalikda belgili qiyofa, ya'ni badiiy obrazni tashkil etadi.

Bu borada rassom-modelerning ijod qilishi uchun ijodiy manbalar quyidagilar bo'lishi mumkin: tabiat shakllari (o'simlik, hayvon, harakat, odamning o'zi va h.k.), san'at namunalari, milliy ma'naviy meros, chet davlatlar ma'naviy merosi, turli voqea va hodisalar, yangi materiallar, rassomning yakka tuyg'ulari, dizaynerlarning kolleksiyalari va h.k.. Keltirilgan barcha manbalar bizni o'rab turgan real hayotdan kelib chiqadi.

Obraz yaratishda ijodkor o'z faoliyatini shu tarzda davom ettirishi mumkin. Har bir dizayner o'z uslubini yaratish uchun harakat qiladi, bu uslubda esa davr muammolari, asosiy masalalar yechimini topib, keng aholining va yoshlarning talablari qondirilsagina yaratilgan yangi uslub muvaffaqiyat qozonadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida libos modellarini yaratish uchun ijodiy manbalar sifatida zamonaviy modadagi "prêt-a porter" yo'nalishi, mashhur modalar uyi - Christian Diorning so'ngi prêt-a-porte kolleksiyalari, dizayner Laura Biagiottining ijodi va ayollar liboslariga latofat bag'ishlovchi gipyr gazlamasi xizmat etdi.

Zamonaviy moda har tomonlamadir. Pret-a-porte fransuz tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjimada "tayyor ko'ylak" ma'nosini anglatadi. Pret-a-portega Parijning yetakchi moda uylari asos solgan. O'tgan asrning 20-yillarigacha pret-a-porte faqat boylar uchun, birinchi o'rinda - aslzodalar uchun mo'ljallangan edi. Kiyim bir dona nusxada tikilgan, ko'pincha qo'l ishlari bilan bezatilgan. Pol Puare va Paken kabi modelerlar faqat buyurtma asosida ishlashgan.

Albatta bunday buyumlar juda qimmat baholangan, lekin birinchi jahon urushidan so'ng Evropada inqiroz bo'lib o'tgan edi, shu sababli zamonaviy

moda ham o'ziga qulaylik yaratdi. Ayni o'sha davrda "tayyor ko'ylak" kolleksiyalari yaratildi va birinchi brend butiklari ochila boshladi, yangi kolleksiyalar oshkora tarzda omma e'tiboriga taqdim etildi. Pret-a-porte moda tarixida katta rolni Koko Shanel o'ynadi, u namoyishni katta shouga aylantirib, yosh va go'zal xonimlar e'tiborini o'ziga qaratdi.[31]

Bunday kiyimlar o'rtahol aholi uchun mo'ljallanib, "ot kutyur" kiyimlardan anchagina arzon turgan, lekin har bir moda uyining barcha sifatlari va uslubiy o'ziga xosligini saqlab qolgan. Aynan o'sha davrda birnecha parijlik moda uylari yopilishga majbur bo'lishdi, masalan, Elza Skiaparellining moda uyi.

Shundan buyon har bir mashhur moda uyi "haute couture"dan tashqari o'z "pret-a-porte"sini yaratadi. Ular albatta brendning uslubiga xos, sifatli original matolardan tikiladi va hisobli partiyalarda chiqariladi. Diorning pret-a-porte kolleksiyalari yiliga ikki marta Dyusseldorf va Milandagi yirik dunyo yarmarkalarida namoyish etiladi. Bu 1948 yildan beri pret-a-porte moda tarixida odatga aylanib kelmoqda, birinchi bo'lib bunday tarzdagi ikki mavsumiy kolleksiyalar namoyishini Kristian Dior namoyish etgan edi. Mashhurligiga qaramasdan kutyurening o'zi bu yo'nalishga katta e'tibor ajratgan.

Hozirda ham mashhur brendlarning pret-a-porte kolleksiyalari mavsumiy haute couture kolleksiyalari g'oyalarini o'zida aks ettiradi. Ularning sifati doimo qat'iy nazorat ostida turadi, yetakchi brendlar o'z reputatsiyasini saqlaydi. Modellar hisobli partiyalarda o'z butiklariga va mashhur multibrend do'konlarga tarqatiladi. Yangi mavsumda yangi modellar bilan almashtiriladi. Bunday kiyimlar fasoni nafaqat brend uslubiga, shuningdek, zamonaviy moda yo'nalishiga mos bo'ladi, chunki ular nafaqat podium uchun, balki birinchi o'rinda kundalik kiyish uchun mo'ljallangan.[31]

Mashhur moda uyi - Christian Diorning bahorgi-kuzgi 2016 yil pret-a-porte kolleksiyasi oq batistdan shorti, top, ko'ylak va yubkalardan tashkil topgan. Nozik buyumlarni yirik to'qilgan sviter va jiddiy siluetli jaketlar bilan uyg'unlashtirish kolleksiyaga o'zgacha originallik bag'ishlagan. Kolleksiyaning

asosiy o‘ziga xosligini ko‘rsatib turgan buyum bu – shorti, uni kichik ko‘ylaklar va tunikalar bilan kiyish mumkin. Kolleksiyani nozik ranglar uyg‘unligi tashkil etgan, shu qatorda qora rang ham o‘z o‘rnini kyyeng egallagan.

Raf Simons zamonaviy modaning asosiy minimalisti, har qanday bezaklarsiz libosni aynan uning shakli va g‘oyasining qiziqarliligi hisobidan bejirim etib yaratishi barchani hayron qoldirmay qo‘ymaydi. U Dior an‘analaridan uzoqlashmagan holda kolleksiyalarning o‘zgarmas yutuqlarini ta‘minlab keladi.

Bu yilgi yangi kolleksiya namoyishida gullarga burkangan dekoratsiya hammani hayratga soldi. Moda uyining kreativ direktori Dior Raf Simons shunday deydi,- “Men tozalikni o‘zida aks ettiruvchi kolleksiya yaratishni istagan edim. Ayolga xos joziba, nafislik va ta‘sirchanlik kabi birdan-bir g‘oyani olib chiquvchi, iloji boricha soddalashtirilgan kolleksiya yaratish maqsad qilingan; bu sodda ko‘rinishga ega kolleksiya aslida texnik jihattan juda ham murakkab yechimga ega. Bunda viktorian davri ko‘ylaklari bichimidan olingan qiyalama bichimli yupqa ko‘ylaklar jaket va trikotaj bilan uyg‘unlashtirilgan. Mening fikrimcha bu uyg‘unlik juda futuristik ko‘rinish kasb etgan, shuning bilan bir qatorda romantik hamdir.”

2-oktyabr kuni Parijdagi 2016 yil bahorgi-kuzgi yangi pret-a-porte kolleksiyasi namoyishida o‘tmish dunyoqarashining kelajakka qadar o‘tishi, tabiiy chiziqlar go‘zalligi va takrorlanmas Dior usuli taqdim etildi. Raf Simons qarama-qarshiliklar bilan ishlashni xush ko‘radi – klassitsizm va modern, ta‘sirchanlik va jiddiylik, ayollarga va erkaklarga xoslik, o‘tmish va kelajak, ularning hozirgi zamon nuqtasida to‘qnashishini ko‘rsatib beradi.

Liboslarda plisse qo‘llash Dior moda uyiga xos xususiyat va uni nafaqat ko‘ylaklarda, balki uzun jaketdan tushib turgan shoyi atlaslarda uchratishimiz mumkin.

Har doimgidek Raf Simonsning geometrik aniq chiziqlari va uslubni juda yaxshi his etishi barchani hayratlantiradi. Uning libosini kiygan ayolning o‘ziga ishonchi ortib, rostakam Parij jozibasini o‘zida aks ettirishi aniq. Raf

Simons tabiatga xos bo'lgan aniqlik, tozalik va musaffolik jihatlarini yangi shakllarda topishni istaydi.[25]

Laura Biagiottining 2016 yil bahorgi-kuzgi kolleksiyasida sokin ranglardan tashkil topgan va yorqin urg'ular bilan boyitilgan "pret-a-porte" yo'nalishidagi liboslarini ko'rishmiz mumkin. Qaymoqrang qizil bilan juda yaxshi uyg'unlik kasb etgan. Kolleksiyada kontrast bezaklar, kashta, nozik gulli printlar ishtirok etgan. Liboslar silueti erkin, kontrast rangdagi krujevolar tunika va sarafanlarga ozroq qat'iylik baxsh etgan. Kolleksiya modellari juda nozik uyg'unlikda yaratilgan, krujevolar ko'p uchraydi, yupqa materiallar va ko'pqavatlilik mahorat bilan qo'llanilgan.[27]

Italiya gipyurning rostakam vatani hisoblanadi. Birinchi motivlar zamonaviy gipyurdan o'zgacha bo'lgan, albatta, boshida bu oddiy o'simlik qatorli geometrik naqsh bo'lgan. U yoqalarni bezatishda ishlatilgan. Asta-sekin naqsh murakkablashib, o'simlik naqshlaridan tashqari hayvonlar va boshqa suratlar tushirila boshladi.

Dastlab gipyur matosi kashta to'qilishiga o'xshash naqshlar o'yg'unligidan tashkil topib, ayollar yubkalarini bezab turgan. Venetsiya krujevosi doimo o'zgarishlarga uchrab turgan. XVII asr yarmini oladigan bo'lsak, u davrda liliya va anor gullari bilan bezatilgan. Boshida lola va romashka gulli naqshlar bo'lgan edi.[29]

Keyinchalik odamlarning libosga bo'lgan qarashlari o'zgargan edi. Krujevo ham o'z ko'rinishini o'zgartirdi. Buyumning narxi uning materiali va to'qilishiga bog'liq edi. Boy aholi uchun zig'ir tolali, tilla va kumush iplar aralashtirilgan gipyurlar yaratilgan. Yaratish jarayoni uzoq vaqt va mashaqqatli mehnatni talab etgan. Bir buyumning yaratilishida bir vaqtning o'zida birnecha odam ishlashi mumkin edi. Ninada to'qilgan Italiya naqshlari boshqa davlatlarda ham yuqori baholanib kelgan.

Zamonaviy gipyur gazlamasi to'qish mashinalarida tayyorlanadi. Naqsh turlari oldindan kompyuter xotirasiga yozilib, turli xil tolalardan: paxta, zig'ir,

ipak, sintetik tolalardan to'qiladi. Gipyur krujevoning birnecha turlarini birlashtiradi, bular: asossiz, mayin, dag'al, naqshi bo'rtib chiqqan, tekis.[29]

Gipyurning chiroyi barchaning e'tiborini o'ziga tortadi. Uning mayinligi, hech bir gazlamaga o'xshamasligi kishini yangi g'oyalar sari undaydi. Libosda va hatto aksessuarlarda ham gipyurni dekorativ bezak sifatida ishlatish ularga bayramona ko'rinish bag'ishlaydi.

3. Taklif etilayotgan modellarning vazifasini asoslash.

Ushbu liboslar to'plamining mavsumiy mo'ljallanishi bahor-yoz. Aynan yorqin va go'zal liboslarni ham ushbu mavsumda yaratishimiz mumkin. Liboslar pret-a-porter yo'nalishida, jiddiy ish joylarida o'z ish faoliyatini olib boruvchi 20-30 yosh atrofidagi ayollar kundalik kiyishi uchun yaratildi.

Kiyim odam tanasidagi sun'iy yopinchiq, u tabiatning ta'sirlaridan saqlaydi va insonning o'ziga xos qiyofasini, zamon ruhini o'zida aks ettiradi. Aksessuarlar esa libosga qo'shimcha zeb berib, ijobiy estetik funktsiyani bajaradi. A.V.Lunacharskiy "biror bir narsani ishlab chiqarishdan maqsad - bu eng avvalo insonlarning hojatini chiqarish" degan edi. Albatta, bu gapda jon bor. Hozirgi zamon odamlarida kiyimga bo'lgan talab kuchli, ular kostyumning qulay va takrorlanmas bo'lishini istaydilar.[8]

Pret-a-porte yo'nalishidagi modellar hisobli partiyalarda o'z butiklariga va mashhur multibrend do'konlarga tarqatiladi. Yangi mavsumda yangi modellar bilan almashtiriladi. Bunday kiyimlar fasoni nafaqat brend uslubiga, shuningdek, zamonaviy moda yo'nalishiga mos bo'ladi, chunki ular nafaqat podium uchun, balki birinchi o'rinda kundalik kiyish uchun mo'ljallangan.

Kundalik kiyiladigan kiyim quyidagi gigienik talablarga javob berishi kerak: haroratni saqlash, nam o'tkazmasligi, elektrizatsiyaga mosligi, havo va bug'ni o'tkazuvchanligi. Kiyim sifatining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari konstruksiyaning texnik jihatdan mukammal darajasini ishlab chiqarish va iste'molchi xarajatlarini hisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologik usullarini inobatga olish kerak.[4]

Shuningdek, estetik talabga ham javob berishi shart. Ya'ni libos go'zal bo'lishi kerak, chunki go'zallik insonning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki uning didini, dunyoqarashini belgilaydi. Kiyim rangi, shakli, bezaklari insonning kayfiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bahorgi-yozgi kundalik liboslar to'plami yorqin, quvonch baxsh etadigan, zamonaviy moda talablariga javob bera oladigan bo'lishi kerak.

Yozgi kundalik kiyim iste'mol jarayonida shaklini saqlash, yuvishga qulayligi, chidamliligi yuvilganda kirishmasligi, rangi o'zgarmasligi, ranglarning quyoshga chidamliligi yuqori bo'lishi lozim.

Hozirda tabiiy hamda sintetik tolalar aralashtirilib, undan sifatli gazlamalar ishlab chiqarilmoqda. Bu gazlamalarning tabiiylik hususiyatlari saqlab qoldirilib, ular yanada yengilroq, pishiqroq, cho'ziluvchan hususiyatlarni kasb etdi. Kiyimning yangi turlarini yaratishga va gazlamalarni qo'llash jihatidan qayta taqsimlashga moyillik kuchaygan. Gazlamalarning universallashtirishi, erkaklar kiyimi gazlamalarini ayollar kiyimida ishlatish, yupqaroq va yengilroq materiallardan ust kiyim tikish, yengil kiyim turlarini ust kiyim tarzida kiyish yuz bermoqda. Buni zamonaviy podiumda taklif etilayotgan modellardan ko'rishishimiz mumkin.[29]

Aynan mana shu turdagi gazlamalardan tikilgan liboslarni dunyoning yetakchi dizaynerlari ham alohida ta'kidlab kelmoqdalar. Mamlakatimiz hududida iqlim sharoitini hisobga olib, bahor va yoz mavsumlarida kiyishga qulay liboslarni ishlab chiqish hamda uning nafaqat qulayligi, balki estetik jihatdan did bilan tanlangan mato, bichim va silluetlarning bir biriga uyg'unligiga etibor berish zamonaviy dizaynerlarimizning oldiga qo'ygan bosh maqsadidir.

Kolleksiya modellarini tayyorlashda aralash tolali gazlamalar va gipjur gazlamasi qo'llanildi. Bu matolar birinchi o'rinda estetik talablarga javob beradi. Aralash tolali gazlama ham gigienik talabga javob berib, g'ijimlanishga chidamli, tikishga qulay va libosga zeb berib turuvchi gipjur bilan yaxshi uyg'unlik kasb etgan.

Gazlamalarning tola tarkibi modellashtirish, loyihalash, bichish, tikishda hisobga olinishi lozim. Gazlamalarning tashqi ko'rinishi, qayishqoqligi, qirqishga qarshiligi, titiluvchanligi, cho'ziluvchanligi, dazmollanuvchanligi, ho'llash-dazmollash rejimlari uning tola tarkibiga bog'liq bo'ladi. Masalan, agar lavsanli jun gazlamalar juda ho'llangan latta qo'yib 200⁰S gacha qizdirilgan dazmol bilan dazmollansa, ayrim joylari kirishadi ketmaydigan dog'lar paydo

bo‘ladi. Kapron gazlamalarga juda qizib ketgan dazmol tegishi bilanoq ular erib ketadi. Atsetat tolali gazlamalarga juda qizigan dazmol tekkanda ketishi qiyin bo‘lgan yaltiroq joylar paydo bo‘lishi mumkin.[9]

Gazlamalardagi dog‘larni ketkazish paytida ham ularning tola tarkibini va shu gazlamani hosil qiladigan tolalarning kimyoviy xossalarini hisobga olish lozim; chunonchi, agar atsetat tolali gazlamalardan dog‘larni ketkazish uchun atseton ishlatilsa, ketmaydigan boshqa dog‘lar paydo bo‘lishi, gazlama qisman yoki butunlay erishi mumkin.[9]

Gipyur tarixi XVI asrda Italiyada boshlangan. Bu davlat krujevoning rostakam vatani hisoblanadi. Birinchi motivlar zamonaviy gipyurdan o‘zgacha bo‘lgan, albatta, boshida bu oddiy o‘simlik qatorli geometrik naqsh bo‘lgan. U yoqalarni bezatishda ishlatilgan. Asta-sekin naqsh murakkablashib, o‘simlik naqshlaridan tashqari hayvonlar va boshqa suratlar tushirila boshladi.

Ilgari gipyur kashta to‘qilishiga o‘xshash naqshlar u‘yg‘unligidan tashkil topib, ayollar yubkalarini bezab turgan. Venetsiya krujevosi doimo o‘zgarishlarga uchrab turgan. XVII asr yarmini oladigan bo‘lsak, u davrda nilufar va anor gullari bilan bezatilgan. Boshida lola va moychechak gulli naqshlar bo‘lgan edi.

XVII asr oxiriga kelib odamlarning libosga bo‘lgan qarashlari o‘zgargan edi. Krujevo ham o‘z ko‘rinishini o‘zgartirdi. U «point de rose» nomini oldi. Buyumning narxi uning materiali va to‘qilishiga bog‘liq edi. Boy aholi uchun zig‘ir tolali, tilla va kumush iplar aralashtirilgan gipyurlar yaratilgan. Yaratish jarayoni uzoq vaqt va mashaqqatli mehnatni talab etgan. Bir buyumning yaratilishida bir vaqtning o‘zida birnecha odam ishlashi mumkin edi. Ninada to‘qilgan Italiya naqshlari boshqa davlatlarda ham yuqori baholanib kelgan.[29]

Hozirgi zamonda gipyur gazlamasini tayyorlashda to‘qish mashinalari ishlatiladi. Naqsh turlari oldindan kompyuter xotirasiga yozilib, turli xil tolalardan: paxta, zig‘ir, ipak, sintetik tolalardan to‘qiladi. Gipyur krujevoning birnecha turlarini birlashtiradi, bular: asossiz, mayin, dag‘al, naqshi bo‘rtib chiqqan, tekis.

Gipyr asosan zanjirli usulda tayyorlanadi. Bunday usulda to‘qilgan gipyr qattiq bo‘ladi, ammo bir vaqtning o‘zida juda nozik ko‘rinish kasb etadi. U bo‘rtib chiqqan nashlar va ularni birlashtirib turuvchi elemenlardan tashkil topadi.

Gipyurning quyidagi turlari mavjud:

- Klassik. Nozik va chiroyli. Ayollar libosi va pardalar uchun qo‘llaniladi.
- Charm-gipyr. Zich to‘qiladi, bashang liboslar uchun qo‘llaniladi.
- Metallik. Yaltiroq xarakterli. Maksimal zich to‘qilishli.
- Setka. Juda yupqa.
- Lyukser qo‘shimchali. Bu qo‘shimcha bashang ko‘rinish beradi.
- Trikotaj. Yaxshi cho‘ziluvchan xarakterli.[29]

Gipyr barchaning hayolini o‘g‘iraydi. Bu yoqimli gazlama o‘zining ko‘rinishi bilan kishini xursand qiladi. Libosda va aksessuarda gipyurni dekorativ bezak sifatida ishlatish unga bayramona ko‘rinish bag‘ishlaydi.

Dizayn-loyihasi ishlab chiqilgan kolleksiya modellar uchun ishlatilgan aralash tolali gazlama va gipyr gazlamalari bir-biri bilan yaxshi uyg‘unlik keltirib chiqargan, hamda pret-a-porte yo‘nalishidagi liboslarni o‘zida aks ettirgan.

4. Badiiy qism.

Kolleksiya modellarining dastlab qoralama for-eskizlari bajarildi. For-eskizlar bu biron-bir narsaning xomaki tasviri, muallif yaratmoqchi bo'lgan maqsadning ko'rinishi, uning xolati, shakli, dastlabki chizmasi. For-eskizlarni ishlash loyiha oldi izlanish ma'lumotlariga va me'yoriy qoidalarga asoslangan holda ijodiy g'oyani shakllantirishga imkon beradi.[14]

So'ng modellarning rangli eskizlari birnecha variantlarda bajarildi. Eskizlar loyiha g'oyasini ishlash, buyum o'lchamlari va shaklining ayrim detallarini izlashdan iborat bo'ladi. Eskizlar ichida eng yaxshisini tanlab olish va uni yanada takomillashtirish maqsadida ular, ya'ni eskizlarning bir necha yo'nalishlarini tekshirib ko'rish lozim. Eskiz izlanishlarining natijasi, yangi buyumni yaratishdagi birinchi qat'iy taklif hisoblanadi. Ish jarayonida yangi mavsumda o'tkaziladigan moda namoyishlaridan ilhomlanib, ulardan yangiroq, qiziqarliroq, o'ziga xos ko'rinishdagi dastlabki eskizlarni ishlab chiqildi.[5]

Kolleksiya modellari 5 tadan iborat bo'lib, ularning oxirgi tasdiqlangan rangli va texnik eskizlari ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan modellarning tashqi ko'rinishiga tasnif berildi. Modellarning hajmiy-fazoviy shakli hosil qilingan chizmalar va modellarga texnologik ishlov berish usullari chizmalari keltirildi.

Kolleksiya 5 ta modeldan tashkil topgan. Kolleksiya bahor-yoz mavsumi, 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yosh ayollarga mo'ljallangan. Zamonaviy pret-a-porter yo'nalishida ishlab chiqilgan. Bu liboslarni mos aksessuarlar tanlab kundalik hayotda kiyish tavsiya etiladi. Barcha liboslarga aksessuarlar, oyoq kiyim va bosh kiyimlar tanlash mumkin.



Model - 4



Model-2







Model-3.





Model-4.





Model-5.





Model-1.





Model - 2.





Model-2.



Model-3



Model-4.



Model-4.



Model-5.

4.3. Modellarning tashqi ko'rinishi tasnifi.

1- modelning tashqi ko'rinishi tasnifi.

Model bahor-yoz mavsumi, 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan xushbichim, baland bo'yli yosh ayollarga mo'ljallangan. Kostyum qora rangdagi aralash tolali gazlamadan tayyorlangan bluza va qora rangdagi gipyur gazlamasidan tayyorlangan yubkadan iborat.

Bluza yarimyo'pishgan to'g'ri siluetli, ikki yon chokli. Old bo'lak uzunligi bel chizig'idan 7 sm. pastga tushgan, orqa bo'lak old bo'lakdan 5 sm. uzunroq, etagi aylana shaklida kesilgan. Bo'yin o'mizi chuqur emas aylanasimon o'yilgan, yengsiz. Bo'yin va yeng o'mizlariga adib yordamida texnologik ishlov berilgan. Ko'krak va bel vitochkalari o'z joyida joylashgan. Taqilmasi chap yonda joylashgan, taqilma sifatida plastmassa tishli molniya tasmasi qo'llanilgan. Etagi ko'rinmas qo'l choki yordamida qaytarilgan.

Yubka qora rangdagi trikotaj to'qilishli gigyurdan tikilgan. Yopishgan to'g'ri siletli, ikki yon chokli, uzunligi to'piqqacha davom etgan, bel chizig'i o'z joyida joylashgan. Bostirma cho'ntaklari yubkaning old bo'lagingining ikki yonida joylashgan. Cho'ntaklar uchun bluzani tikishda qo'llanilgan qora rangdagi aralash tolali gazlama ishlatilgan va ularga ko'rinmas choklar orqali alohida jihatli texnologik ishlov berilgan. Taqilmasi chap yonda joylashgan, taqilma sifatida plastmassa tishli molniya tasmasi qo'llanilgan. Yubka astarli, astar uzunligi yubka uzunligidan 5sm. kaltaroq. Yubkaning etagiga gipyur matosining kromkasi tushirilgan va alohida texnologik ishlov berishni talab etmagan.

2- modelning tashqi ko'rinishi tasnifi.

Model bahor-yoz mavsumi, 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan xushbichim, baland bo'yli yosh ayollarga mo'ljallangan. Kostyum bluza va yubka-shimdan iborat. Bluza qaymoqrang gipyur matosidan tikilgan, yubka-shim qaymoqrang aralash tolali gazlamadan tikilgan.

Bluza erkin to'g'ri siluetli. Bluzaning old va ort bo'laklari yenggi bilan yaxlit bichilgan. Uzunligi bo'ksa va bel chiziqlarining o'rtasigacha davom etgan. Bo'yin o'mizi qayiqsimon o'yilgan, yeng uzunligi 4/3 nisbatgacha davom etgan, erkin siluetli. Bo'yin o'mizi va yeng uchlariga gipyur matosining tabiiy kromka naqshlari tushirilib alohida texnologik ishlov talab qilmagan. Silueti erkin va bo'yin o'mizi yeng bo'lganligi sababli taqilmalar ishlatilmagan.

Yubka-shim erkin siluetli, uzunligi to'piqqacha davom etgan. Shim ustidan alohida qo'yilmalar orqali taxlama hosil etilib ikki yoniga qo'yilgan va yubka-shim ko'rinishi hosil etilgan. Etagi taxlamalar hisobiga kengaygan. Etagi ko'rinmas qo'l chokida qaytarilib texnologik ishlov berilgan. Bel qismi manjetli. Taqilmasi chap yonida joylashgan, taqilma sifatida plastmassa tishli molniya ishlatilgan.

3- modelning tashqi ko'rinishi tasnifi.

Model bahor-yoz mavsumi, 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan xushbichim, baland bo'yli yosh ayollarga mo'ljallangan. Kostyum qora rangdagi gipyur matosidan tayyorlangan ko'ylak va oq rangdagi aralash tolali gazlamadan tayyorlangan yubkadan iborat.

Ko'ylak yarimyopishgan to'g'ri siluetli. Uzunligi tizzagacha davom etgan. Ikki yon chokli. O'tkazma yengli, yelka chizig'i o'z joyida. Yeng uzunligi 4/3 nisbatgacha davom etgan. Bo'yin o'mizi qayiqcha shaklida o'yilgan. Ko'krak vitochkalari mavjud. Taqilmasi orqa chokda joylashib, plastmassa tishli molniya tasmasi qo'llanilgan va tepadan bo'ksa chizig'igacha davom etgan. Etagi, bo'yin o'mizi va yeng uchlariga gipyur matosining kromkasi tushirilib, alohida texnologik ishlov talab etmagan. Ko'ylak astari qora rangli bo'lib, ko'ylakning old va orqa bo'laklariga ulanib tikilgan va asos uzunligidan 20 sm. kalta, yengida mavjud emas.

Yubka erkin to'g'ri siluetli. Uzunligi boldirgacha. Ikki yon chokli. Old bo'lak zapax bichimli, old qismda vitochkalar o'rniga keng bo'lmagan ikki taxlama tushirilgan. Zapax old bo'lakning markazida joylashib, tizzadan pastga

qarab ochilgan. Orqa bo‘lak sodda bichimli, vitochkalari o‘z joyida joylashgan. Beli manjetli va taqilmasi chap yonda joylashtirilgan. Taqilma uchun plastmassa tishli molniya tasmasi va tugma ishlatilgan. Oldidagi zapax bo‘ylab adib yordamida texnologik ishlov berilgan. Etagi ko‘rinmas qo‘l choklari yordamida qaytarilib texnologik ishlov berilgan.

4- modelning tashqi ko‘rinishi tasnifi.

Model bahor-yoz mavsumi, 20 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan xushbichim, baland bo‘yli yosh ayollarga mo‘ljallangan. Kostyum bluza va yubka-shimdan iborat. Bluza qora rangli trikotaj gipyur matosidan tikilgan, yubka-shim qora rangdagi aralash tolali gazlamadan tikilgan.

Bluza yarimyopishgan to‘g‘ri siluetli. Uzunligi bel va bo‘ksa chizig‘i o‘rtasigacha davom etgan. Ikki yon chokli. O‘tkazma yengli, yelka chizig‘i o‘z joyida. Yeng uzunligi $\frac{4}{3}$ nisbatgacha davom etgan. Bo‘yin o‘mizi qayiqsimon o‘yilgan. Ko‘krak vitochkalari mavjud. Taqilmasi chap yonda joylashib, plastmassa tishli molniya qo‘llanilgan. Etagi, bo‘yin o‘mizi va yeng uchlariga gipyur matosining kromkasi tushirilib, alohida texnologik ishlov talab etmagan. Bluzaning astari qora rangli, old va orqa bo‘laklariga ulanib tikilgan, yengida mavjud emas.

Yubka-shim keng siluetli, uzunligi to‘piqqacha davom etgan. Yubka-shim taxlamalar yordamida hosil etilgan. Etagi taxlamalar hisobiga kengaygan. Old va orqa bo‘laklarga birdek taxlamalar joylashtirilgan. Etagi ko‘rinmas qo‘l chokida qaytarilib texnologik ishlov berilgan. Bel qismi manjetli. Taqilmasi chap yonida joylashgan, taqilma sifatida plastmassa tishli molniya ishlatilgan.






5- modelning tashqi ko‘rinishi tasnifi.

Model bahor-yoz mavsumi, 20 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan xushbichim, baland bo‘yli yosh ayollarga mo‘ljallangan. Kostyum qora rangdagi gipyur matosidan tayyorlangan ko‘ylakdan iborat.




Ko'ylak yarimyopishgan to'g'ri siluetli. Uzunligi tizzadan 15 sm. pastgacha davom etgan. Ikki yon chokli. O'tkazma yengli, yelka chizig'i o'z joyida. Yeng uzunligi 4/3 nisbatgacha davom etgan. Bo'yin o'mizi aylana shaklida o'rtacha chuqurlikda o'yilgan. Ko'krak vitochkalari mavjud. Taqilmasi orqa chokda joylashib, plastmassa tishli molniya tasmasi qo'llanilgan va tepadan bo'ksa chizig'igacha davom etgan. Etagi, bo'yin o'mizi va yeng uchlariga gipyr matosining kromkasi tushirilib, alohida texnologik ishlov talab etmagan. Ko'ylak astari qaymoqrang bo'lib, qora rang bilan kontrast yechimga ega va gipyr matosining naqshlarini aniq ko'rinishiga sababchi bo'lgan. Astar ko'ylakning old va orqa bo'laklariga ulanib tikilgan va asos uzunligidan 20 sm. kalta, yengida mavjud emas.

4.4. Konfeksion xaritalar.






1- model uchun tayyorlangan konfeksion xarita.

Buyumning nomi: ayollar bluzasi va yubkasi.	
Material nomi va vazifasi (yoki qo'llanilishi)	Material namunasi
Asosiy mato: aralash tolali gazlama, gipyur.	
Astarli mato: sintetik tolali trikotaj mato.	
Qotirma: yelimli dublerin.	
Biriktiruvchilar: 40 raqamli ip	
Furnitura: 1. Plastmass tishli molniya tasmasi	






2-model uchun tayyorlangan konfeksion xarita.

Buyumning nomi: ayollar bluzasi va yubka-shimi.	
Material nomi va vazifasi (yoki qo'llanilishi)	Material namunasi
Asosiy - mato: aralash tolali gazlama, gipyur.	
Qotirma: yelimli dublerin.	
Biriktiruvchilar: 40 raqamli ip	
Furnitura: 2. Plastmass tishli molniya tasmasi	





3-model uchun tayyorlangan konfeksion xarita.

Buyumning nomi: ayollar ko'ylagi va yubkasi.	
Material nomi va vazifasi (yoki qo'llanilishi)	Material namunasi
Asosiy mato: aralash tolali gazlama, gipyur.	
Astarli mato: sintetik tolali mato.	
Qotirma: yelimli dublerin.	
Biriktiruvchilar: 40 raqamli ip	
Furnitura: 3. Plastmass tishli molniya tasmasi	

4-model uchun tayyorlangan konfeksion xarita.

Buyumning nomi: ayollar bluzasi va yubka-shim.	
Material nomi va vazifasi (yoki qo'llanilishi)	Material namunasi
Asosiy mato: aralash tolali gazlama, gipyur.	
Astarli mato: sintetik tolali mato.	
Qotirma: yelimli dublerin.	
Biriktiruvchilar: 40 raqamli ip	
Furnitura: 4. Plastmass tishli molniya tasmasi	

5-model uchun tayyorlangan konfeksion xarita.

Buyumning nomi: ayollar ko'ylagi.	
Material nomi va vazifasi (yoki qo'llanilishi)	Material namunasi
Asosiy mato: gipyur.	
Astarli mato: sintetik tolali mato.	
Qotirma: yelimli dublerin.	
Biriktiruvchilar: 40 raqamli ip	
Furnitura: 5. Plastmass tishli molniya tasmasi	

5. Modelning hajmiy-fazoviy shaklini hosil qilish va texnologik ishlov berishni asoslash.

Ushbu kolleksiya modellari maketlash va modellashtirish yo'llari bilan hosil qilindi.

Modelning konstruksiyasini ishlab chiqish, buyumning hajmi va o'lchami va proporsiyalarini ko'z bilan idrok etilishi xususiyatiga bog'liq. Maketlash yo'li bilan yangi model andozasini yaratayotganda kamdan kam hollarda kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Yangi shaklni yaratish borasida izlanishlar olib borganda maketlash ishlari zarur. Bu usul asos konstruksiyadan boshlab yakuniy model yaratilgunigacha o'tish jarayonini o'z ichiga oladi.[6]


Badiiy konstruksiyalash vaqtida buyum maketini ishlash muhim ahamiyatga ega. Maket buyumni har tomonlama ko'rishga, uning shakl mutanosibligi, o'lchamlarining qomatga va boshqa buyumlarga nisbatan mutanosibligini takomillashtirishga imkon beradi. Maket holatga konstruksion yechim rangli yechimning to'g'riligi va boshqa tomonlarini tekshirishni osonlashtiradi. Maket qomatning antropometrik xususiyatlariga mos kelishi, tana shakliga mos kelishi va ma'lum funksiyasi, vazifasini bajarishi lozim.[11]


Shu jarayonda taklif etilayotgan modellarning murakkab shakllari avval maket holida bajarildi. Yangi model konstruksiyasi aniqlangandan so'ng asos matodan foydalanildi. Kiyimni konstruksiyalash ya'ni uning qurilmasini tuzish, yassi materialdan odam gavdasini qoplab turuvchi hajmli qobiq yaratish jarayonidir. Odam gavdasini yassi mato bo'lagi bilan o'rab, gavdaning qobariq joylarida mato bo'lagini burmaga yig'ib, yoki taxlamalar yordamida shakl berib, botiq joylarida matoning ortiqcha joylarini olib tashlab fazoviy qobiq hosil qilinadi. Odam gavdasida yoki manekenda hosil qilingan bunday qobiq tekislikka yoyilib, kiyim konstruksiyasi hosil qilinadi. Konstruksiyalashning bunday usuli maketlash usuli deyiladi. [13]

Libos modellashtirilgandan so'ng, libos bichilib tikishga tayyorlanadi. So'ng uning yeng, yoqa va bort qismlariga yelim qotirmalar issiqlik berish


yordamida yopishtiriladi. Tikishni boshlashdan oldin, detallar bir biriga ulab ko'klab chiqiladi. Libos tikilishga tayyor bo'lgach, tikilish ketma-ketligida amalga oshiriladi. Old bo'lak qismlari bir biriga ulanadi, so'ng old va ort bo'lak qismlari ulanadi. Har bir tikilish ketma-ketligida dazmol qilinadi. Yeng qismlari ham ulab dazmollanadi. Libos qismlari ulanib, kiyim tayyor holatga keltiriladi.[13]

Yangi modellar andozalarini tayyorlash tamoyillari tavsifi. Detallar andozalarining chizmasi bu ularning konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish hamda bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andozalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi. Kiyim detallari andozalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari haqidagi va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi.






Model-3.




Model-4.




Model-5.

B-B



A-A



Xulosa

Bitiruv malakaviy ishida prêt-a-porter yoʻnalishidagi bahor-yoz mavsumi, 20-30 yoshdagi ayollar uchun moʻljallangan modellar kolleksiyasining dizayn-loyihasi ishlab chiqildi.

Mamlakatimizdagi libos dizayni sohasining rivojlanishi, bu sohaga ajratilayotgan eʼtibor va talablar oʻrganilganida biz yoshlardan katta umid qilinayotganiga guvoh boʻldik. Yurtimiz aholisi uchun zamonga mos hamda mentalitetimizdan kelib chiqib bejirim yangi liboslar yaratish maqsad qilindi. Zamonaviy moda yoʻnalishi oʻrganilib, uning talablariga mos pret-a-porte yoʻnalishidagi modellar kolleksiyasining dizayn-loyihasi ishlab chiqildi. Urdagi ranglar, matolar, libos shakllari qoʻllanildi.

Zamonaviy moda yoʻnalishida liboslarda kuzatilganidek klassik uslub, siluetining erkinligi, krujevolarni keng qoʻllash, modellardagi juda nozik uygʻunlik, yupqa materiallar va koʻpqavatlilikdan foydalanildi.

Kristian Dior modalar uyining kreativ direktori Raf Simonsning ijodi ilhom manbasi sifatida xizmat qildi va kolleksiya modellari shu asosdagi nozik uygʻunlikda loyihalashga xarakat qilindi.

Pret-a-porte yoʻnalishidagi liboslar nafaqat podium uchun, balki birinchi oʻrinda kundalik kiyish uchun moʻljallanganligi sababli, modellarni yaratishda ularga qoʻyiladigan gigienik va estetik talablar hisobga olindi. Kundalik liboslarga qoʻyiladigan talablarning barchasiga javob beruvchi xususiyatlar eʼtiborga olindi. Modellar uchun qoʻllanilgan matolarning xarakteristikasi oʻrganilib, ular hisobga olindi, tanlangan matolarning ham gigienik, ham estetik talablarga javob berishi, qolaversa, zamonaviy moda yoʻnalishiga mosligi koʻzda tutildi. Qulay va goʻzal liboslar ayollar koʻnglidan chiqishi aniq.

Modellarning konstruktiv va texnologik yechimlari chuqur oʻrganilib, kerakli usullar tanlandi va loyihalashtirildi. Liboslarning bejirimligi, albatta, ularga berilgan texnologik ishlov usullari va issiqlik yordamida pardozlash ishlariga ham bogʻliqdir. Bu ishlar ham eʼtibordan chetda qoldirilgani yoʻq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992.
3. Андреева Р.П.Энциклопедия моды. М. «Литера» 1997г.
4. Бердник Т.О. Моделирование и художественное оформление одежды. Ростов н/Д: изд. «Феникс», 2001.
5. Бердник Т.О. Основы художественного проектирования одежды и эскизной графики Ростов «Феникс» 2001 г.
6. Бердник Т.О. Как стать модельером. Ростов “Феникс” 2000 г.
7. Горина Г.С. Моделирование формы одежды. – М.: Легкая и пищевая промышленность, 1982.
8. Гусейнов Г.М., Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю., Ляхова Н.Б., Финашина Е.М. Композиция костюма: Учеб. пособие. – М.: Издательский центр «Академия», 2003.
9. Ермилова В.В., Ермилова Д.Ю. Моделирование и художественное оформление одежды. Учебное пособие для студ. М.: Мастерство; Издательский центр Аккадемия, Высшая школа, 2001.
10. J.Ochilov. Gazlamashunoslik.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti , 2008.
11. Komilova X.N., N.K. Xamrayeva. Kiyim loyihalash asoslari. Toshkent 2005.
12. Козлова Т.Б. и др. Моделирование и художественное оформление женской и детской одежды. Учебник для вузов. М.: Легпромбытиздат, 1990.
13. Кибалова Р., Гербанова О., Ламарова М. Иллюстрированная энциклопедия моды. Прага, 1987.
14. Matuzova E.M. va boshqalar. Ayollar yengil kiyimini konstruksiyalash va modellash. Toshkent 1998. O'qituvchi.

15. Основы теории проектирования костюма. Под ред. Т.В. Козловой. – М.: Легпромбытиздат, 1988.
16. Пармон Ф.М. Композиция костюма. – М.: Легпробытиздат, 1997.
17. Петушкова Г.И. Проектирование костюма. – М.: Издательский центр «Академия», 2004.
18. Po'latova S.U.. Zamonaviy libosni modellashtirish. – T.: Sharq 2007y.
19. Po'latova S.U.. Kiyim konstruksiyalash. – T.: Turon iqbol 2006y.
20. Современная энциклопедия. Аванта+Мода и стиль. Москва. Аванта: 2002.
21. Терешкович Т.А. «Словарь моды» Минск 1999.
22. Шершнева Л.П. Конструирование женских платьев. – М.: Легпромбытиздат, 1991.
23. X.X.Kamilova, N.K.Namrayeva. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. – T.: Cho'lpon matbaa ijodiy uyi, 2011.

Internet saytlar:

24. <http://britishdesign.ru/>
25. <http://www.obe.ru/>
26. <http://www.artfuture.ru/>
27. . <http://damskiydom.com/>
28. <http://modanews.ru/>
29. <http://textiletrend.ru/pro-tkani/>
30. <http://www.adensya.ru/>
31. <http://lady.tsn.ua/moda/pisk-mody/>
32. <http://modnica.info/>

ILOVALAR



Laura Biagiotti



Laura Biagiotti



Laura Biagiotti



Laura Biagiotti



Blumarine



Blumarine



Blumarine



Max Mara



Marni



Marni



Christian Dior



Christian Dior



Christian Dior



Christian Dior



Christian Dior











Талабанинг Битирув малакавий иши учун Замрова Цедра
(талабанинг фамилияси, исми, шарифи)

Туркият қисми

ТАКРИЗ

Бўлим 5150800 - Дундак тасвир
тўқимачилик ва ашёвий ҳунари ва соҳада
(мутахассислик ва йўналиш номи)

Такризга берилган Битирув малакавий иши
мавзуси: "Рат-а-ратет" тўқимачилик
иёсе шохларини қосимасини
иши ҳунари - соҳасини
ишловиди

БМИнинг:
Илмий қисми: "Рат-а-ратет" тўқимачилик
(талабларга мувофиқлиги)

иши ҳунари ҳунари қосимасини
ишловиди ҳунари қосимасини, иши ҳунари
иши ҳунари қосимасини ва иши ҳунари
иши ҳунари қосимасини
иши ҳунари қосимасини
иши ҳунари қосимасини
иши ҳунари қосимасини

БМИ Бадиий қисми Ташкил ҳунари иши ҳунари
(эскиз, планшетларнинг бажарилиши)

5 та, ташкил ҳунари ҳунари
иши ҳунари қосимасини
иши ҳунари қосимасини
иши ҳунари қосимасини
иши ҳунари қосимасини
иши ҳунари қосимасини

Ёзув қисми

Қирин, Қамонавий севда тўрсо-
лими, швед сессидими тасмаловба
уш шессидим, бунини қисми, Мадри-
ларини қамилни сунувини
шамилни қисми қисми ва текко
слова шилув бергани, қисми
қамилни қисми қисми, қисми

БМИ (МД) нинг бажарилиши ва хажми

Тўғрисида

БМИ шилув қамилни қисми қисми
ва 50 бунини қисми қисми

БМИ (МД) нинг бажарилиши бўйича танкидий
мулоҳазалар

Такризчи берган баҳо

Қамилни шилув қамилни қисми
қисми қисми БМИ шилув
қисми қисми қисми, қисми
ва шилув қисми қисми
қисми қисми қисми

“ 7 ” июль 2017 й



Қамилни қисми қисми қисми
қисми қисми қисми
қисми қисми қисми

(такризчининг Ф.И.Ш., имзо)